

**Shahrisabz davlat pedagogika instituti**  
**Geografiya fani o'qituvchisi**  
**Xudoyorov Lochinbek**  
**Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi**  
**3-bosqich talabasi**  
**Mavlonova Surayyo Hasan qizi**

## **DUNYO XALQLARINING TARKIBIY TUZILMALARI VA ULARNING GEOGRAFIK NAMOYON BO'LISHI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali siz, qadimgi dunyo xalqlarining qanday paydo bo'lganligi va qay yo'sinda shakllanganligini, shu bilan birga, ulaning tarkibiy tuzilmalarining o'rtasidagi farqlar natijasida yuzaga kelgan omillar va ularning geografik namoyon bo'lishida hududning ahamiyati qanchalik muhim ekanligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bundan tashqari, yo'lga qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilinib, bugungi kundagi dunyo xalqlarining o'rtasidagi farq taqqoslangan va yuzaga kelgan muammolar yuzasidan taklif va yechimlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Dunyo aholisi, tarkibiy tuzilmalar, geografik jihat, muammolar, rivojlanish, etnik tarkib, etnografiya, zichlik.

**Abstract:** Through this article, you will learn how the peoples of the ancient world arose and how they were formed, at the same time, about the factors that arose as a result of the differences between their structural structures and how important the territory is in their geographical manifestation. you will have information. In addition, the shortcomings were analyzed, the differences between the nations of the world today were compared, and suggestions and solutions were given for the problems that arose.

**Key words:** World population, structural structures, geographical aspect, problems, development, ethnic composition, ethnography, density.

Insoniyat paydo bo'libdiki, jamoaviy bo'lib yashab kelgan. Tarixiy taraqqiyotning yuksalishi davomida jamoalar kengayib, turli xil etnografik birliklarning rivojlanishi natijasida turli xil xalqlar paydo bo'lgan. Ma'lumki, bundan 10-15 ming yillar muqaddam Yer yuzida aholi son jihatidan juda kam bo'lgan va sekinlik bilan ko'paygan. O'sha vaqtlarda inson tabiatga qaram bo'lgan. Odamlar ovchilik, termachilik va oziq-ovqat yig'ish bilan kun kechirganlar. Keyinchalik chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanib borishi bilan aholining o'sishi ham birmuncha tezlashdi. Hozirgi vaqtda aholi sonining o'sishi ayrim

Qit'alar, davlatlar o'rtasida va hatto yirik mamlakatlarning ichida ham farq qiladi. Bu juda ko'p omillarga bog'liq, masalan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, farovonlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga bog'liqdir. Hozirda Yer yuzida "*DeutscheWelle*"ning turkcha nashri xabariga ko'ra 2024 yilning boshidan hisoblaganda dunyoda 8 milliard 73 million 859 ming 407 kishiga yaqin odam yashaydi. Ular turli xalqlarga mansub. Har birining soni 100 milliondan ortiq xalqlar mavjud bo'lib, ularning asosini ko'proq bir millat vakillari tashkil etadi. Masalan, xitoylar, yaponlar, ruslar, bengallar misol bo'lsa, nemislar, italiyanlar, fransuzlar esa bir necha milliondan iborat. Shuningdek, kam sonli xalqlar ham bor. Bular orasida eng kichigi – Fillipin orollarida yashovchi **TASADAY** qabilasining vakillari kiradi. Bu qabila vakillarining soni 50 kishiga ham yetmaydi. Ular tog' yonbag'irlarida yashaydilar. Ovchilik va yovvoyi o'simliklarni terish bilan kun kechiradilar. Yaqinga qadar ular o'zlaridan boshqa odamlar borligini bilmaganlar ham. Yer yuzida hammasi bo'lib, 2 mingga yaqin katta va kichik xalq mavjud. Ular turli tillarda so'zlashadilar, ularning urf-odatlar ham turlicha. Xalqlar tashqi ko'rinishi bilan ham farqlanadilar. Masalan, yaponlar dag'al qora sochli va bodomko'z, barcha bengallar qorachadan kelgan, tropik Afrikada yashovchi xalqlar esa qora tanli, sochlari jingalak bo'ladi.

Har bir xalq o'zining maxsus tilida so'zlashadi. Biroq bundan mustasno holatlar ham mavjud. Masalan, inglizlar va amerikaliklar bir xilda ya'ni inglizchada, lyuksemburgliklar va avstryaliklar esa nemis tilida, ispanlar hamda Janubiy va Markaziy Amerikaning ko'pchilik xalqlari ispancha so'zlashadilar. Lekin ular ham turli xalqlardir. Ularning har biri o'z tarixi, turmush tarzi va urf-odatlariga ega. Xalqlar o'rtasida tafovutlar ko'p, lekin ularning o'xshashlik va umumiylik tomonlari ham mavjud. Xalqlarning hammasi bir bo'lib, insoniyatni tashkil etadi.

Mana shu insoniyatning tarkibiy tuzilmalari va ularning geografik manzarasini ilmiy asosda o'rganish zamonaviy geografiyaning dolzarb mavzularidan biridir. Xalqlarning hududiy joylashuvi va tarkibiga ta'sir etuvchi omillar kabi bo'limlarga bo'lib oldik. Aholi moddiy ne'matlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi va ayni vaqtda uning asosiy iste'molchisidir. Demografik jarayonlar, ya'ni aholinning ko'payishi, o'sishining xususiyatlariga oid sur'ati, tug'ilishi, o'lim, nikohda bo'lish darajasining o'zgarishi, avlodlar almashinuvi, umr ko'rish davomiyligi, jinsiy balog'at va oila tarkibi kabilar butun jamiyat rivojlanishi bilan o'zaro jips hamda uzviy aloqadordir.

Ular jamiyat rivojlanishiga tobe bo'lib, unga ta'sir o'tkazadi. U yoki bu davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar kechishini osonlashtiradi yoki qiyinlashtiradi. Shuning uchuun ham aholi sonining o'zgarishiga aloqador

muommolar, uning hududiy joylashuvi va mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri ko'plab olimlar, demograflar, iqtisodchilar, geograflar, faylasuflar, huquqshunoslar, tibbiyotchilar va boshqalar diqqatini doimo jalb etib keladi. Aholi sonining o'sib borishi, mehnat resurslaridan foydalanish, aholini oziq-ovqat va boshqa kunlik ehtiyojlarini qondirish hamda boshqa muammolar aholi geografiyasi fanining eng asosiy muommolaridir. Aholini tadqiq etish va jamiyat rivojlanishidagi ro'lini ta'riflash, shuningdek jamiyat taraqqiyotida turlicha o'ringa ega bo'lgan aholi qatlamlarini o'rganishda juda ko'plab ish qilingan va nazariyalar yaratilgan. Bunday nazariyalar va qonuniyatlar ishlab chiqarish negizida aholining rivojlanishini tushuntirib berishga qaratilgan bo'lib, insoniyat kelajagi va taraqqiyotini boshqarish hamda prognoz qilishda muhim ro'l o'ynaydi. Aholining rivojlanishi haqidagi nazariyalar vaqt nuqtayi-nazardan nisbiydir va bu nazariyalarning qanchalik hayotiy ekanligini vaqt ko'rsatadi. Aholi va uning faol qismi bo'lgan mehnat resurslari makroiqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Makroiqtisodiyot aholi va mehnat resurslarining ijtimoiy iqtisodiy yo'nalishlarini tadqiq etish orqali uni samarali boshqarish va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishni maqsad qilib oladi. Chunki, mehnat resurslari va uning faol qismi bo'lgan ishchi kuchi ishlab chiqaruvchi kuchlarning eng asosiy qismidir. Shu bilan birga mehnat resurslari bozor iqtisodiyoti munosabatining tarkibiy elementlaridir. Shu sababli mehnat resurslarini har tamonlama o'rganib, uni iqtisodiy geografik jihatdan baholash maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari aholi joylashuvi haqida gapiradigan bo'lsak, u ma'lum vaqt davomida aholining hududlar bo'ylab tarqalishi va aholi maskanlari to'rining shakllanishi natijasida yuzaga keladigan jarayondir. Bu jarayon qator omillar bilan bog'liq. Ularga tabiiy sharoit va aholi manzilgohlari shakllanishining tarixiy xususiyatlari, demografik o'tish bosqichlari, rivojlanish darajasi, sotsial-iqtisodiy omillar bilan bir qatorda xo'jalik tarkibini kiritish mumkin. Aholi joylashuvida eng asosiy omil bu tabiiy sharoit hisoblanadi. Dunyo aholisining asosiy qismi ham inson yashashi uchun qulay tabiiy sharoitga ega bo'lgan, shuningdek, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish imkoniyati bor hududlarda joylashgan. Tabiiyki, bu mehnat resurslarining ham shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, tabiiy sharoiti inson yashashi uchun qulay, suv resurslari mavjud hududlarda, ya'ni, O'rta dengiz atroflarida, Shimoliy Afrika, Yevrosiyo materigining janubida aholi zichroq joylashgan. Eramizning boshlarida aholi asta-sekin dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlaydi. Odamlar moddiy ne'matlarni o'zlari mehnat qilib yaratishga o'tganlar va ishlab chiqarish jarayoni yetakchilik qila boshlaydi. Ular ma'lum bir hududlarda o'troq bo'lib yashashga, o'tadilar va aholi punktlarini quradilar. Natijada, avval qishloq maskanlar, keyinchalik shahar

maskanlari paydo bo'la boshlaydi. Aholining turmush tarzi yaxshilana borishi bilan, insonlar hayotida ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Hozirgi davrda esa Yer yuzi bo'ylab aholi juda notekis joylashgan. Sayyoramizda aholi juda zich (1 km. kv.ga 1000 kishi) yashaydigan hududlar ham uchraydi. Bundan tashqari, aholi juda siyrak joylashgan hududlar ham mavjud. Bu yerda havo haroratining juda pastligi, mavjud bo'lgan suvning muz holatida ekanligi va shu kabi bir qancha sabablar mavjud. Bunday hududlar Yer sharidagi quruqlikning 10 % ini tashkil etadi. Ularga Shimoliy va Janubiy qutblar, balandligi 5000 metrdan ziyod bo'lgan tog'lar va sahrolar kiradi. Yer sharidagi quruqlikning 50 % aholi uchun tabiiy sharoiti noqulay hudud hisoblanib ularda aholi zichligi 1 km. kv.ga 1 kishidan to'g'ri keladi.

Dunyo aholisining etnik tarkibi haqida gapiradigan bo'lsak, Yer sharida, etnik birliklarning tarkibi asosan, ibtidoiy jamoa tuzumidan toki hozirgacha bo'lgan kategoriyalari, urug', qabila, elat va millatlardan iboratdir. Kishilarning eng qadimgi etnik birligi "*urug*" bo'lib, u asosan ibtidoiy jamoa tuzumida vujudga kelgan. Jamoa tuzumining vujudga kelishi, odamlarning qon-qarindoshliklariga asoslangan. Urug'chilikning asosiy belgilari quyidagilardir:

- 1) urug' a'zolarining bir-biri bilan qarindoshligi
- 2) xo'jalik faoliyatining birligi
- 3) ijtimoiy hayotning, turmush tarzining va o'sha davrga xos bo'lgan madaniyati bilan tavsiflanadi.

Etnik tarkibning ikkinchi yuqoriroq qismi "*qabila*" dir. Uning tavsifini o'z tili va shevasiga, hududiga ega bo'lgan, shuningdek maxsus kengash tomonidan boshqarilgan jamoa sifatida ifodalash mumkin. *Elat* esa keng qamrovli tushuncha bo'lib, asosan feodalizm jamiyati davrida ya'ni quldorlik davrida shakllana boshlagan. Elat kishilarning millatdan oldingi tarixiy birligidir. Elatlarning o'z nomlari, tili, umumiy madaniyati va psixik xususiyatlari tarkib topgan. Elatlar o'zining hududiga ega bo'lishi bilan birga ma'lum darajada iqtisodiy aloqalar ham qilishgan. Millat bir so'z bilan aytganda yuqorida nomi qayd etilgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan birga, milliy ongning rivojlanganligi bilan farqlanadi. Ammo rivojlanishning kapitalizm sharoitida barcha xalqlar ham alohida millat sifatida tashkil topadi deb bo'lmaydi. Chunki xalqlar o'rtasida tenglikning yo'qligi, ko'p sonli va kuchli xaqlarning ekspluatator sinflar tomonidan mayda xalqlarning shafqatsiz ekspluatasiya qilinishi, madaniyat va iqtisodiyotning rivojlanishi yo'lida sun'iy g'ovlarning vujudga keltirilishi ularning millat sifatida tashkil topishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Umuman olganda xalqlar geografiyasida etnik jarayonlar, turli xalqlarning madaniyati, hududiy joylanishi, bir-biri bilan o'zaro aralashuvi, mehnat halqalari

kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Etnografiya fani esa mamlakatlar va rayonlar aholisining etnik tarkibi, xalqlarning hududiy munosabatlarini, turli etnik guruhlarning oldingi davrlarida, shuningdek, hozirgi hududiy yashash formalarini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Ya'ni aholining etnik tarkibini har tomonlama geografik o'rganish ko'pgina demografik jarayonlarni tushunishga yordam beradi. Masalan aholining takror barpo bo'lishini bunga misol qilib keltirish mumkin. Chunki bu borada geografik joylashuv va ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aytaylik dunyo aholisining o'sish su'ratining sekinlashishi ayollarning o'rtacha hisobdan kamroq bola tug'ishi bilan bog'liq. *DSW*ning hisob-kitoblariga ko'ra, iqtisodiy jihatdan anchagina ortda qolgan Afrika aholisi 2080 yilga kelib bugungi kunga nisbatan aholisi 2 barobarga ortib, 2,5 milliardga yetishi prognoz qilingan. Buning asosiy sababi sifatida esa tug'ilishning nazorat qilish usullariga erishishning murakkabligi va gendir tenglikning yo'qligi kabi sabablar asos qilib keltirilmoqda. Mutaxassislar fikricha, bu kabi salbiy holatlar ko'pincha ayollarning erta yoshdan boshlab ko'p farzandli bo'lishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda dunyo xalqlarining tarkibiy tuzilmalari geografik namoyon bo'lishi, Yer yuzidagi insoniyatning paydo bo'lgandan boshlab, rivojlanishi, keng yoyilishi Yer yuzi bo'ylab, tabiiy sharoiti qulay bo'lgan hududlarda tezroq rivojlanib sivilizatsiyani hosil qilishi, shuningdek, etnik tarkibiga ko'ra bir-biridan keskin farqlanishi va boshqa turli sabablarni o'z ichiga olgan holda namoyon bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda geografik namoyon bo'lishi barcha tabiiy jarayonlarni qamrab oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asanov.G.R "Aholi geografiyasi" Toshkent-2010.
2. Bo'riyeva M.P.,Tojiyeva Z.N.,Zokirov S.S. "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari"-Toshkent. "Tashakkur", 2011.
3. Xudoyorov L., Mavlonova S. Orol dengizining ekologik holati-bugungi dunyoning dolzarb muammosi. "Экономика и социум" №10(113)-1 2023.
3. <https://www.trt.net.tr>.